# SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI
# Q A R O R I

2022 йил «26» июль 198-9-131-Q/22 Ширин шаҳар ҳокимлиги

## Shirin shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga toʻliq qamrab olish yuzasidan shahardagi umumtaʼlim muassasalarining mikrohududlarini belgilash toʻgʻrisida

“Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalari, “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunining 27-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy oʻrta taʼlim toʻgʻrisidagi nizomning 39-bandiga asosan shaharda maktab yoshidagi bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga qamrab olish jarayonida umumtaʼlim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Shirin shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga toʻliq qamrab olish boʻyicha umumtaʼlim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) roʻyxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Shahar hokimining oʻrinbosari (N.Alimova), shahar Xalq taʼlimi boʻlimi (J.Jumanazarov), shahardagi umumtaʼlim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga toʻliq qamrab olish, oʻquvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish boʻyicha zarur choralar koʻrish vazifasi topshirilsin.

3. Belgilansinki, shahardagi umumtaʼlim muassasa rahbarlari oʻzlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni oʻz vaqtida umumtaʼlim muassasasiga oʻqishga jalb qilish uchun masʼul

hisoblanadi.

4. Shirin shahar hokimligi matbuot xizmati (Sh.Abduqunduzov) mazkur qarorning shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta’minlansin va mazkur qaror shahar hokimligining “Shirin sadosi” gazetasida (O.Ashurqulov) rasman e’lon qilinsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari N.Alimova zimmasiga yuklatilsin.

**Shahar hokimi** **S.Sultonov**

Shirin shahar hokimining
2022 yil 26 iyuldagi
198-9-131-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Shirin shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga toʻliq qamrab olish boʻyicha umumtaʼlim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)**

**ROʻYXATI**

| № | Umumtaʼlim muassasasi tartib raqami | Umumtaʼlim muassasasi joylashgan manzili | Umumtaʼlim muassasasiga biriktirilgan hudud (yoki koʻcha) |
|---|---|---|---|
| **1.** | Shirin shahar 1-sonli umumtaʼlim maktabi | Shirin shahri Amir Temur MFYda | Amir Temur va Doʻstlik MFY (1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, 5-uy, 6-uy, 7-uy, 8-uy, 9-uy, 10-uy, 11-uy, 12-uy, 13-uy, 14-uy, 15-uy, 1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, 5-uy, 6-uy, 7-uy, 8-uy, 9-uy, 10-uy, Buyuk Turon, Shuhrat, Ibn Sino, Yurtsevar koʻchalari) |
| **2.** | Shirin shahar 2-sonli umumtaʼlim maktabi | Shirin shahri Farhod MFYda | Farhod MFY (Ahillik, Shodlik, Bunyodkor, Tinchlik, Munavvar, Tabassum, Tejamkor, Birdamlik, Tarovat, Fidokor, Barqaror, Ziyokor, Jozibador, Boʻston, Nurafshon, Namuna, Nurli yoʻl, Alisher Navoiy, Zahiddin Muhammad Bobur, Yangi dunyo, Istiqlol, Diyonat, Abu Rayhon Beruniy, Yuksalish, Saodat, Umid, Barhayot, Matonat, Ibrat, Yangiyoʻl, Elparvar, Zarafshon, Erksevar, Sadoqat, Nafosat, Qoʻngʻirot, Farogʻat, Chigʻatoy, Sharq yulduzi, Istiqbol, Charogʻon, Turon, Taraqqiyot, Binokor, Zarbdor, Orzu koʻchalari) |
| **3.** | Shirin shahar 3-sonli umumtaʼlim maktabi | Shirin shahri Mirzo Ulugʻbek MFYda | Mirzo Ulugʻbek, Vatanparvar va Bunyodkor MFY(1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, 5-uy, 6-uy, 7-uy, 8-uy, 9-uy, 10-uy, 11-uy, 12-uy, 13-uy, 14-uy, 15-uy, 16-uy, 17-uy, 18-uy, 19-uy, 20-uy, 1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, 5-uy, 6-uy, 7-uy, 8-uy, 9-uy, 10-uy, 11-uy, 12-uy, 1-uy, 2-uy, 3-uy, 4-uy, Mahorat, Qadriyat, Baraka, Oʻrikzor, Maʼrifat, Navbahor, Fazilat, Markaziy, Farovon, Yurtsevar, Xalqlar doʻstligi koʻchalari) |
| **4.** | Shirin shahar 4-sonli umumtaʼlim maktabi | Shirin shahri Nurobod MFYda | Nurobod MFY (Mustaqillik, Navroʻz, Hamjihat, Oydin, Obod yoʻl, Quvonch, Qahramon, Nihol, Mirishkor, Madadkor, Yangi asr, Temiryoʻlchilar, Iftihor, Ziynat, Yoshlik koʻchalari) |